

AMIR TEMURNING OLTIN O'RDA XONI TO'XTAMISHXONGA QARSHI YURISHI

Karimova Muxayyo Sobirjon Qizi

O'zMu universiteti Tarix fakulteti tarix yo'nalishi

II bosqich talabasi

Annotatsiya:

Biz mazkur maqolada Amir Temurning Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga qarshi yurishi haqida batafsil yoritib o'tamiz. Shuningdek, maqolamizning ilk sahifalarida Amir Temurning Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga yurishi sabablari haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Bundan tashqari, ikki hukmdor ya'ni buyuk sarkarda Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi elchilik munosabatlari alohida o'rin tutadi. Maqolamizning yakunida Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi evaziga ko'plab xalqlar milliy ozodlikka erishganini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Oltin O'rda, Terek, elchilik aloqalari, Qunduzcha, juvang'ar, barang'ar, Savron qamali, Shayx Maslahaddin maqbarasi.

Abstract:

In this article, we will cover in detail about Amir Temur's campaign against the golden middle Horde khan of Tokhtamysh Khan . Also, the first pages of our articles contain information about the reasons for Amir Temur's move against the Khan of the Golden Horde, Tokhtamysh Khan. In this article, we will cover. In detail about Amir Temur's move against the Golden Middle Khan. In addition , the diplomatic relations between the two new rulers, Amir Temur and Tokhtamysh Khan, have a special place. At the end of our proverbs, we can see that many nations achieved national freedom thanks to Amir Temur's victory over Tokhtamysh Khan.

Keywords.

Amir Temur, Golden Horde, Terek, consular relation, Kunduzcha, Juvangar, Barangar, Siege of Savron, Mausoleum of Sheikh Maslahaddin.

Maqolamiz boshida buyuk sarkarda, davlat arbobi va markazlashgan davlat asoschisi Amir Temurga to'xtaladigan bo'lsak, Amir Temur o'z hayoti davomida ko'plab davlatlarga yurishlarni amalga oshirgan. Sohibqiron Amir Temur 1370-yildan 1405-yilgacha Xuroson, Eron, Iroq, Ozarbayjon, Gurjiston, Armaniston, Shimoliy Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya(Usmonli turklar) bilan jang qilib, o'z saltanati hududini Sharqda Xitoy devoriga qadar, shimolda-Moskvaga, g'arbda-O'rta Yer dengiziga, janubda esa Misr chegarasiga(Samarqanddan hisobga olsak Fors ko'rfazi va Hindistonning shimoliy qismi)ga qadar kengaytiradi. To'g'ri, Amir Temur olib borgan

jangu jadallar natijasida minglab begunoh odamlarning qoni to'kilgan. Ammo insoniyat tarixida bo'lib o'tgan urushlar sababi, tub mohiyatini ilmiy asosda tahlil qilinsa, barcha chigalliklar birin-ketin yechila boradi.

Sohibqiron A.Temurning tarixini yozgan turli toifadagi muarrixlar xazratning shaxmatga (shatranj) juda ishqiboz bo'lganlarini qayd etishgan. Odatda, har qanday mashg'ulot bilan undan zavq olgan kishigina shug'ullanadi. Shug'ullanish (shaxmat) bir zavq bo'lsa, unda g'alaba qozonish yana bir zavqdir. Qolaversa, zavqlana bilish, zavqlanadigan vositani topish, o'zida zavqlanishga ehtiyoj sezish qay darajadadir komillik belgisidir. Hazrat Sohibqiron shaxsida komillikning bir qirrasini sifatida shaxmatga ishqibozlik namoyon bo'lgan edi. Ibn Arabshox o'ziga xos istehzo bilan yozadi: "Temur Sharq-u G'arb iqlimlarini alg'ov – dalg'ovga soldi. Uning jang-u jadalida har bir sulton yutqazib, har bir shoh jangda xam, shaxmat o'yinida ham undan yengilib mot bo'ldi. Ba'zan shaxmatda bir tomonga ishqibozlik qilgan muxlislar vaqt o'tib, taxtaning ikki tomonidan bir-biriga qarshi dona suradilar. Bu o'yindagi oddiy xol, biroq To'xtamishga qarshi (aniqrog'i, To'xtamishning shakkokligiga yarasha) javob yurishiga axd qilgan Turon lashkari bilan kechajak sinoatlari esa shaxmat taxtasi ostida ro'y beradigan xolatlardan xiyla murakkab edi. To'xtamish yo'q joydan Sohobqironga tashvish orttirdi. Buni xalqda "O'ziga o'zi qildi", deyiladi.

To'xtamish jangda yengilib, Amir Temur dargohiga qochib kelganda, O'rusxonga tutib berganida xam Oq O'rda oldida obrusi oshardi, xam bugungi tashvishlariga xojat qolmasdi. To'xtamishxon ilk marotaba otasi To'yxo'ja boshchiligida elchilar bilan Sohobqiron saroyiga kelganda o'smir yoshida bo'lib, shahzodalar Jahongir va Umarshayx bilan qariyb tengdosh, o'g'illari qatorida ancha jozibali tuyulgandi. Keyin esa yosh Jahongir Mirzo dunyoni tark etkan kunlar farzand dog'ida kuyib o'tirgan A.Temur xuzurida paydo bo'ldi. Sohobqiron erta tark etgan farzandiga atalgan mehrini unga berdi, uni o'gil maqomida ko'rdi. Amir Temurning To'xtamishxonga yurishi shu tariqa boshlandi.¹

1376-yili Oq O'rdaning hukmdori O'rusxon Oltin O'rdaga qarshi harbiy yurish qiladi. Mazkur yurishda Mang'ishloq(Mingqishloq) hokimi To'yxo'ja o'g'lon qatnashmaydi. Bundan g'azablangan O'ro'sxon To'yxo'ja o'g'lonni qatl qildiradi. To'yxo'ja o'g'lonning o'g'li To'tamishxon Temur huzuriga qochib keladi va o'z xizmatini taklif qiladi. Temur bu masalaning mohiyatini atroflicha o'rganib, Oq O'rdada o'z odami bo'lishini nazarda tutib, To'xtamishxonga O'rusxonga qarshi katta qo'shinni hamroh qilib Oq O'rda taxtini qo'lga kiritishni ta'kidlab jo'natadi. Ammo To'xtamishxon yengilib qaytadi.

1376-yil qish faslida Amir Temurning shaxsan o'zi Oq O'rdaga qarshi jangga o'tlanadi. Biroq sovuqning zabtiga olishi tufayli jang harkatlari to'xtatiladi. Faqat 1379 – yildagina To'xtamishxonni o'tqazadi va O'rusxonni qatli qildirib, o'zi Samarqandga

¹ Sattoriy. X. Xazrat Sohobqiron.-T.: Sharq, 2016.B-157,158

qaytadi. Biroq, To‘xtamishxon Oq O‘rda xoni bo‘lib olgach, Amir Temurning umidlarini puchga chiqardi. To‘xtamishxon dastlabki yillarda Temur tomonidan berilgan xar qanday yordamni bajonidil qabul qilar va chetdan qaraganda o‘z xomiysiga minnatdor va sodiqdek ko‘rinardi².

1380-yili Kalka daryosi bo‘yida Oltin O‘rda hukmdori Mamayni mag‘lub etgan To‘tamishxon Saroy al-Jadid, Saroy Botu, Saroychiq, Hojitarxon singari shaharlarni zabt etadi va o‘zini Oltin O‘rdaning mutloq hokimi deb e‘lon qiladi. Jo‘ji ulusi rahbarligini kuch bilan qo‘lga olgan To‘tamishxon olib borgan siyosati va harbiy harakatlarning asosiy yo‘nalishi janubga, ya‘ni qachonlardir Chigatoy xoni va Xulokuxon uluslari hisoblangan Movarounnahr hamda Xurosonga qaratilgandi. Biroq Samarqanddan kelgan chopar, To‘xtamishning yana Movarounnahrqa bosqin uyushtirgani haqida xabar olib keldi.

Bu uluslar XIV asr o‘rtalariga kelib tanazzulga yuz tutgan, yerlari Temurbek va uning farzandlari tomonidan egallanmoqda edi. O‘z xatti-xarakatlarini yaqin o‘tmishda juda katta xududda xukmronlik qilgan buyuk endilikda o‘zaro urush va nizolar tufayli mayda bo‘laklarga ajralib ketgan, o‘z umrini tugatayotgan chingiziylar saltanatini qisman bulsada qayta tiklashdek aniq maqsadga qaratgan yosh, g‘ayratli, shu bilan birga, o‘ta badjahl To‘xtamishxon bir umr minnatdor bo‘lishi lozim topilgan xomiysi va madadkori Temurbek bilan ochiqdan-ochiq, munosabatlarni yomonlashtirish, muholifatchilik qilish ko‘chasiga qadam qo‘yadi. Sohibqiron bilan aloqalarni butunlay o‘zgan To‘xtamishxon uning tasarufiga kirgan mulklarga tajavuz qilish niyatida 1382-1384-yillar davomida katta qo‘shin tuzish hamda uni kerakli qurol-yarog‘ bilan ta‘minlash kabi zarur chora-tadbir bilan mashg‘ul bo‘ladi³. To‘xtamishxon Amir Temurni qudratiga to‘g‘ri baholay olmaydi. Katta xatoga yo‘l qo‘yadi. To‘xtamishxon ishni Movarounnahr va Eronni zabt etishdan boshlashga axd qildi. Bundan yigirma yil oldin, bu ikki o‘lkada xukm surgan boshboshdoqliklar paytida To‘xtamish, extimol, niyatiga yetgan bo‘lardi. Biroq, Samarqanddan kelgan chopar To‘xtamishning yana Movarounnahrqa bosqin uyushtirgani xaqida xabar olib keldi. Bu safar To‘xtamish yo‘qligimdan foydalanib sal xaddidan oshibdi.

1384-yilning nihoyasida To‘xtamishxonning 100 ming kishilik qo‘shini Darband va Shirvon orqali Ko‘ra daryosidan o‘tib, Sohibqiron mulki hisoblangan Tabriz ostonasida paydo bo‘ladi. 1387-yilda To‘xtamish Movarounnahrqa talonchilik niyatida bostirib kirgandan so‘ng A. Temurda ham unga qarshi jang qilish majburiyati vujudga keladi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, To‘xtamish 1388-yil oxirida katta qo‘shin to‘plab, turk-mug‘ul qo‘shinlaridan tashqari rus, bulg‘or, cherkas, alan, moksha, boshqirt va qrim xalqlaridan olingan askarlardan maxsus guruhlar tuzgan.

² Fayziyev.T.Temuriylar shajarasi.-T.:Info capital Group,2020.B-26

³ Dadaboyev.X.Ajdodlarimizning xarbiy mahorati.-T.:Akademik nashr,2016.B-42,43

To‘xtamish qishda janga otlanib, qo‘shinning bir qismini Temur saltanatining chegara shahari bo‘lmish Savroni qamal qilish uchun, ikkinchi qismini esa Aris daryosining Sirdaryoga kelib qo‘yiladigan joyi yaqinidagi Zernuk qal’asiga jo‘natgan. Amir Temur qo‘shinida juvang‘ar va barang‘ar qismlari ham bo‘lgan. A. Temur Sirdaryo yaqinida To‘xtamish qo‘shinining oldingi qismlari bilan to‘xnashib, ularni tor-mor qilib, qolganlarini dunyoning narigi tomoniga qochishga majbur qilgan. 1389-yil bahorida Temur Oq O‘rdaga qo‘shin tortadi va To‘xtamish Savron qamalini tashlab, qo‘shinini dashtlikning ichkarisiga olib kirib ketadi.

Amir Temur To‘xtamish bilan bo‘lajak jang xozirligini ko‘rib bo‘lgach, 1390-1391 yilning qish faslida harbiy yurishni boshlagan edi. U Samarqanddan chiqib, Toshkent tomon yo‘l olarkan, qishni butun askari bilan Chinoz yonida o‘tkazdi. Sharofuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur jang oldida Shayx Maslaxaddin maqbarasini ziyorat qilish uchun Toshkentdan Xo‘jandga boradi, maqbarani tavof qilgach, 10000 kebek (*kepaki*) dinor nazr-niyozini berib, Toshkentga qaytib keladi.

Amir Temur Toshkentda betoblanib, 40 kun yotib qoldi. 1391 yil 19-yanvarining ikkinchi yarmida birmuncha sog‘ayib jang taraddudiga tushdi. Nizomiddin Shomiyning aytishicha, u barcha xotinlari va malikalarni Samarqandga jo‘natdi-da, 1391 yil 22-yanvarda Toshkentdan chiqib, O‘ror tomonga yo‘l oladi. Sharafuddin Ali Yazdiy esa bu safarni 1391-yil 19-yanvar deb ko‘rsatadi. Amir Temur O‘ror yaqinidagi qora Saman mavzeyiga kelib tushganda, uning huzuriga To‘xtamishxonning elchilari keladi. Amir Temur To‘xtamishxon tomonidan yuborilgan elchilarni yaxshi kutib olishni buyiradi. Qabul marosimida elchilar Amir Temurga ko‘plab xadyalar, shu jumladan, bir lochin va 9 yurg‘a ot tortiq qilganlar.

Amir Temur qabul rasm-rusumlarni (marosimlar) buzmaslik uchun lochinni olib qo‘liga qo‘ndirgan lekin lochinga xatto qaramagan ham. Bu bilan mazkur sovg‘alar uni mutlaqo qiziqtirmasligini namoyon etishini ko‘rishimiz mumkin. Elchilar mulozamat bilan tiz cho‘kib, To‘xtamishxonning maktubini Amir Temurga topshiradilar. Maktubda To‘xtamishxon Amir Temur tomonidan o‘ziga ko‘rsatilgan yaxshiliklari va marhamatlarini unutmaganligini, Temurga nisbatan yomon niyat bilan be‘mani xarakter qilgani uchun kechirishini so‘ragan. Shuningdek, nomani To‘xtamishxonning bundan buyon sodiq kishi sifatida qolib, Temurning barcha buyruqlarini so‘zsiz bajarishga jazm qilgani xaqidagi va‘dalari bilan yakunlangan.

Amir Temur To‘xtamishxonning nayrangini yaxshi tushunib yetgani sababli jang taraddudini to‘xtatmaydi hamda 1391-yil 22-aprelda 200 ming kishilik qo‘shin bilan To‘xtamishxonga qarshi harbiy yurishini boshlaydi⁴. Amir Temur va To‘xtamishxon qo‘shinlari "Qunduzcha" degan mavzeda (hozirgi Kuybishev va Chistopol o‘rtasida) to‘qnashdi va 18-iyun 1391 -yili To‘xtamish lashkarlari mag‘lub etildi. Biroq hali

⁴ Fayziyev.T. Temuriylar shajarasi.-T.:Info capital Group,2020.B-27,28

uning qudrati batamom sindirilmagandi.⁵

To'xtamishxonning 1391-yilgi mag'lubiyati qanchalik og'ir bo'lmasin u hali batamom yanchilmagan edi. Arab mualliflari al-Maqriziy, al-Asadiy va al-Ayniylarning hikoya qilishlaricha, 1394 va 1395-yillar davomida To'xtamishxon Misr sultoni al-Malik az-Zohir Berpo'k bilan yaqinlashish yo'lini qidirgan va uni ikki tomon uchun bir xilda xavfli bo'lgan Temurga qarshi kurashda yordam berishga undagan.

1395-yil 15-aprelida Terek daryosi vodiysida Amir Temur qo'shini bilan To'xtamishxon qo'shini o'rtasida hal qiluvchi hayot-mamot janggi boshlandi. Bu jang faqat To'xtamishxonning taqdirini hal qilib quyaqolmay, balki butun Oltin O'rda taqdirini ham hal qildi.

To'xtamishxonning qo'shini shiddatli hujumlarga bardosh berolmay, qocha boshlaydi. To'xtamishxonning so'l qanoti sindirilib, qo'shinlari parokandalikka uchraydi, natijada bu jang To'xtamishxonning qochishi bilan tugallandi. Amir Temur To'xtamishxonning qarorgohida juda katta boylik va xazinani qo'lga kiritadi. Endilikda Amir Temur To'xtamishxonni siyosat taxtasidan butunlay surib tashlashga jazm qilib, Oltin O'rdaning Dnepr tomonidan g'arbiy uluslarga borishga qaror qiladi.

Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning ma'lumotiga qaraganda Amir Temur To'xtamishxonni quvib borarkan, yo'lida uchragan shahar va qishloqlarni talon-taroj qiladi. Amir Temur jumladan, Moskvaga xam bostirib kelgan, deb yozadi Sharafuddin Ali Yazdiy. Lekin bir qator rus tarixchilari Amir Temurni Moskvaga bosib kirganini inkor qiladilar. Misol uchun, "Куликовская битва" nomli kitobda muallif Amir Temur Moskvani olmagan deb aytadi. U faqat Elesgacha borib qaytgan. Moskvaga borishga buyuk knyazdan qo'rqqan shekilli", degan kulguli fikrni yozadi.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, Amir Temur xam tarixdan yaxshigina xabardor shaxs bo'lgan. Oltin O'rda davlatining barpo etilishi xamda uning qo'l ostidagi qaram xalqlar tarixini bilmasligi mumkinmidi? Xolbuki, Amir Temur Movarounnahr taxtiga o'tirgan kundan boshlab Oltin O'rdani o'z saltanatining eng asosiy xavfli dushmani, deb bilgan, binobarin o'ta extiyotkorlik bilan murosa-yu madora uslubida siyosat yuritgan. Amir Temur Oltin O'rdaning ichki va tashqi siyosatidan doim xabardor bo'lib turgan.⁶

Xulosa qilib aytganda: Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi tarix fani sohasida juda katta axamiyatga ega edi. Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasida uchta yirik jangda xam Amir Temurning g'alabasi bilan yakunlandi. To'xtamishxon Amir Temurga qarshi yurishda kuchli tayyorgarlik ko'rgan. Xatto, maxsus qo'shin otryadlar xam tuzgan. Amir Temur ham To'xtamishga qarshi yurishda qo'shiniga tayangan. Bu urushda ikki davlat o'rtasida manfaatlar bo'lgan. Amir Temurni To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi natijasida ko'plab

⁵ Amir.T.Temur tuzuklari.-T.:Ilm-ziyo-zakovat,2020.B-56

⁶ Fayziyev.T.Temuriylar shajarasi.-T.:Info capital Group,2020.B-30

boyliklarni qo‘lga kiritdi. Amir Temur tomonidan To‘xtamishxonga berilgan so‘ngi zarbadan so‘ng Oltin O‘rda qayta o‘ziga kela olmadi va ikkinchi darajali davlatga aylanib qoldi. Bu urushda Amir Temurning g‘alaba qozonishi, 170 yildan buyon asoratga yotgan xalqlar, ya‘ni rus xalqi uchun xam ozodlik yo‘llari ochildi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

- Хаким Сагторий. Хазрат Сохибкирон: Тулд. ва кайта ишланган 2-нашри. 1-китоб.-Т: <<Sharq>>, 2016.-512б.
- Тургун Файзиев. Темурийлар шажараси: /Илмий-тарихий оммабоп нашр-Тошкент: Info Capital group 2020.368 б.

- Дадабоев Х. Аждодларимизнинг харбий махорати.-Тошкент: Akademik nashr, 2016-176 б.
- Марсель Брион. Амир Темур-Тошкент: “Nurafshon business” нашриёти, 2020-248 б.
- Марсель Брион. Менким , сохибкирон –жахонгир Темур-Т: Янги аср авлоди.2014-572 б.
- Amir Temur. <<Temur tuzuklari>> /<<Buyuk davlatchilik silsilasi>> turkumi-Т: <<Ilm -ziyo-zakovat>>, 2020.144б